

GAP TALK РАЗГОВАРИВАТЬ

Abduraximova Mexrinigor

Andijon davlat pedagogika instituti

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20116600>

Annotatsiya. Mazkur maqolada gapning tilshunoslikdagi o'rne, uning grammatik va mazmuniy xususiyatlari yoritilgan. Shuningdek, gapning turlari, tuzilishi hamda nutq jarayonidagi ahamiyati tahlil qilingan. Muallif tomonidan gapni o'rganishning o'quvchilar nutqini rivojlantirishdagi o'rni haqida fikr yuritilib, uning mantiqiy va izchil fikr shakllantirishdagi ahamiyati asoslab berilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, gapni chuqur o'zlashtirish o'quvchilarning yozma va og'zaki nutqini rivojlantirishga xizmat qilishi aniqlangan.

Kalit so'zlar: gap, sintaksis, ega va kesim, sodda gap, qo'shma gap, nutq madaniyati, tilshunoslik, mantiqiy fikrlash, predikativlik, kommunikativ birlik.

Аннотация. В данной статье рассматривается роль предложения в лингвистике, его грамматические и семантические особенности. Также анализируются типы, структура и значение предложения в процессе речи. Автор обсуждает роль изучения предложения в развитии речи учащихся и обосновывает его важность в формировании логичного и связного мышления. По результатам исследования установлено, что глубокое овладение предложением способствует развитию письменной и устной речи учащихся.

Ключевые слова: предложение, синтаксис, притяжательное и причастное, простое предложение, сложное предложение, речевая культура, лингвистика, логическое мышление, предикативность, коммуникативное единство.

Abstract. This article discusses the role of the sentence in linguistics, its grammatical and semantic features. It also analyzes the types, structure and importance of the sentence in the speech process. The author discusses the role of studying the sentence in the development of students' speech, and justifies its importance in the formation of logical and coherent thought. According to the results of the study, it was found that deep mastery of the sentence serves to develop students' written and oral speech.

Keywords: sentence, syntax, possessive and participle, simple sentence, compound sentence, speech culture, linguistics, logical thinking, predicativity, communicative unity.

Kirish. Til – inson tafakkuri va ma'naviy dunyosini ifodalovchi eng asosiy vositadir. Darhaqiqat, nutqning poydevori bo'lgan gap tushunchasi tilshunoslikda ham, kundalik muloqotda ham alohida ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun gapning mazmuniy va grammatik xususiyatlarini chuqur o'rganish, uning nutqdagi o'rnini anglash har bir o'quvchi va o'qituvchi uchun dolzarb masalalardan biridir. Menimcha, gapni to'g'ri tuzish va izchil fikr bayon etish insonning umumiy nutq madaniyatini belgilovchi asosiy ko'nikmalardandir.

“Yoshlarning nutqi, tafakkuri va ma'naviy olamini boyitish – jamiyat taraqqiyotining eng muhim shartidir.”

Asosiy qism. Gap – fikrni grammatik jihatdan to‘liq ifodalovchi birlik bo‘lib, unda predikativlik markaziy o‘rin tutadi. Gap odatda ega va kesimdan tashkil topadi, boshqa ikkinchi darajali bo‘laklar esa mazmunni boyitadi, aniqlik kiritadi.

O‘zbek tilshunosi va ma’rifatchi A.Fitrat o‘zbek tilida gapni quyidagicha izohlaydi: “Gap-bu fikrni bildiruvchi so‘zlar yig‘indisidir. U o‘zbek tilidagi gap tuzilishida kesim markaziy o‘rin tutadi”.

Gapning mazmuni, ohangi, so‘zlar orasidagi sintaktik bog‘lanishlar uning nutqdagi funksional imkoniyatini belgilaydi. Maktab o‘quv dasturlarida gapning mazmuniy tarkibi, tuzilishi va bo‘laklari bosqichma-bosqich o‘rgatiladi. Bu jarayon o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashini, ifoda aniqlik-ligini va mustaqil matn yaratish ko‘nikmasini rivojlantiradi.

Gapning mazmuniy va grammatik jihatdan to‘liq birlik sifatidagi vazifalari uning nutqdagi o‘rnini yanada kengaytiradi. Tilshunoslar fikricha, gap faqat grammatik qurilma emas, balki kommunikativ birlik, ya’ni aloqa vositasi hamdir. Chunki har bir gap orqali inson o‘z emotsiyasi, munosabati, buyruq yoki istagini ifodalaydi. Shu sababli gap tarkibidagi bo‘laklarning o‘zaro munosabati, ohang, urg‘u va pauzalarning to‘g‘ri qo‘llanilishi fikrning qanday qabul qilinishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Gap tarkibida modal birliklar — ya’ni so‘zlovchining munosabatini bildiruvchi vositalar ham muhim hisoblanadi. Masalan, “kerak”, “shart”, “mumkin”, “bo‘lsa kerak” kabi modal so‘zlar gapning ma’nosini aniqlashtiradi va mazmuniy yukini kuchaytiradi. Bu jihat gapning faqat grammatik emas, balki pragmatik tomonini ham ko‘rsatadi.

Shuningdek, zamonaviy lingvistika gapning struktura jihatidan ham o‘zgarib borayotganini e’tirof etadi. Bugungi kunda ommaviy axborot vositalari, internet, ijtimoiy tarmoqlar tilida qisqa, tezkor, ammo mazmunan kuchli gaplar ko‘plab uchramoqda. Bu esa gaplarning dinamik tizim ekanini, kommunikatsiya ehtiyojiga qarab o‘zgarishini ko‘rsatadi.

Yana bir muhim jihat — gapning mustaqil fikr yaratishdagi roli. O‘quvchilar gap qurish qoidalarini o‘zlashtirgan sari matn yaratish ko‘nikmasi shakllanadi. Avval sodda gap, so‘ngra qo‘shma gap tuzish orqali o‘quvchilarning fikrlash doirasi kengayadi. Bu bosqichma-bosqichlik o‘quv jarayonida sintaksisni o‘rgatishning eng samarali yo‘llaridan biri sanaladi.

Tilshunoslikda gapning yana bir muhim tomoni — tema va rema munosabatidir. Gapda berilgan axborotning qaysi qismi yangi, qaysi qismi esa avvalgi fikrni davom ettirishi gapning mantiqiy tuzilishini belgilaydi. Masalan, tema — gapning boshlang‘ich, tanish bo‘lagi bo‘lsa, rema — yangi ma’lumotni ifodalovchi bo‘lakdir. Bu elementlarning to‘g‘ri joylashuvi matnning izchil va tushunarli bo‘lishini ta’minlaydi.

Shuningdek, gapning intonatsiya bilan bog‘liq xususiyatlari ham bor. Gapning tugallanishi, undagi urg‘u, pauza va ohanglar fikr kuchi va emotsiyasini belgilaydi. Ayniqsa og‘zaki nutqda gapning grammatik shakli bilan birga intonatsiyasi ham asosiy ahamiyat kasb etadi.

Tilshunoslikda gapning bir nechta tasniflari mavjud.

Maqsadga ko‘ra turlari:

- 1) darak gap – voqea-hodisani xolis bayon qiladi;
- 2) so‘roq gap – savol mazmunini ifodalaydi;
- 3) buyruq gap – harakatga undaydi;
- 4) undov gap – kuchli hissiy holatni ifodalaydi.

Tuzilishiga ko‘ra turlari:

- a) sodda gap – bitta predikativ markazga ega;
- b) qo’shma gap – ikki yoki undan ortiq predikativ birlikdan tashkil topadi.

Tahlil va natijalar. Tahlillardan ma’lumki, gapning grammatik tuzilishini puxta bilgan o’quvchilar matn tuzishda ham ancha faol va muvaffaqiyatli bo’ladilar. Gap bo’laklarini anglash ularga fikrni izchil shakllantirish, o’z fikrini to’liq ifodalash va matnning mantiqiy bog’liqligini ta’minlashga yordam beradi.

Tilshunos L.V. Shcherba gapni fikr ifodalovchi asosiy sintaktik birlik deb hisoblaydi. Uning fikriga ko’ra: gap tafakkur bilan bog’liq u inson fikrining grammatik shaklidir.

Yana bir muhim jihat – qo’shma gaplarning mazmunini o’zlashtirgan o’quvchilar murakkab fikrlarni tushunarli tarzda ifodalashga qodir bo’ladilar. Shuningdek, gapning ohang tizimi, uning emotsional yoki mantiqiy yuklamasi nutq madaniyatini yanada boyitadi.

Natija shuki, tilshunoslikdagi gap mavzusini mukammal o’rganish nafaqat grammatik bilimni oshiradi, balki o’quvchilarning nutqiy kompetensiyasini, yozma va og’zaki nutqini rivojlantiradi. Bu esa o’z navbatida ular kelajakda o’z fikrini ravon, aniq va mantiqli bayon etadigan yetuk shaxs bo’lishiga zamin yaratadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, gap – tilning eng muhim birliklaridan bo’lib, uning to’g’ri o’rganilishi nutq madaniyatining shakllanishida hal qiluvchi o’ringa ega. Gap bo’laklari, turlari va tarkibiy xususiyatlarini anglash o’quvchilarga fikrni to’g’ri shakllantirish, matnni mantiqiy tuzish va muloqotda muvaffaqiyatli bo’lish imkonini beradi. Shuningdek, gap orqali fikrning aniq, lo’nda va ta’sirchan ifodalanishi jamiyatda nutq madaniyatining yuksalishiga xizmat qiladi. Shuning uchun bu mavzuni chuqur o’rganish ta’lim jarayonida ham, hayotda ham juda muhimdir.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. “Shavkat Mirziyoyev nutqlari to’plami”, Toshkent: “O’zbekiston” nashriyoti, 2017–2023-yillar.
2. G’. Abdurahmonov, A. G’ulomov. “Hozirgi o’zbek adabiy tili”, Toshkent: “O’qituvchi” nashriyoti, 1992-yil.
3. N. Mahmudov, A. Nurmonov. “O’zbek tilining nazariy grammatikasi”, Toshkent: “Fan” nashriyoti, 1995-yil.
4. A. Madvaliyev. “Tilshunoslikka kirish”, Toshkent: “O’zbekiston milliy ensiklopediyasi” nashriyoti, 2008-yil.
5. O’zbekiston Milliy Universiteti o’quv qo’llanmasi. “O’zbek tili o’qitish metodikasi”, Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2014